



## Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020 - yil yanvar – mart

- 2020 - yilning yanvar – martida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi **56,9** %ni tashkil etdi.
- Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 12,5 birlikni tashkil qildi.
- 2020 - yilning yanvar – martida **1436** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,0** martaga kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 620 ta, sanoatda 340 ta, qurilishda 125 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 81 ta, yashash va ovqatlanishda 53 ta, tashish va saqlashda 45 ta tashkil etilgan.

### 2020 - yil yanvar - mart oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Savdo  
43,2 %



Sanoat  
23,7 %



Qurilish  
8,7 %



Qishloq, o'rmon va  
baliq xo'jaligi  
5,6 %



Yashash va  
ovqatlanish  
3,7 %



Tashish va saqlash  
3,1 %

**2020 – yilning yanvar – martida kichik tadbirkorlikning  
asosiy ko'rsatkichlari**

	O'lchov birligi	2019 - y.	2020 - y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	26040	30272	4232
Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlikda	2851	1436	-1415
<i>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</i>				
YaHM	%	56,1	56,9	0,8
Sanoat	%	34,3	36,4	2,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	%	99,3	97,3	-2,0
Investitsiya	%	60,9	69,7	8,8
Qurilish	%	88,6	94,9	6,3
Savdo	%	87,9	88,3	0,4
Xizmatlar	%	72,8	69,9	-2,9
Yuk tashish	%	93,2	94,2	1,0
Yuk aylanmasi	%	95,5	94,3	-1,2
Yo'lovchi tashish	%	94,1	94,4	0,3
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,8	95,6	0,2
Eksport	%	43,3	51,9	8,6
Import	%	72,2	70,9	-1,3



**2020 - yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da**




2020 - yilning yanvar – martida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha eng ko'pi Farg'ona shahrida – 214 ta, Qo'qon shaharda – 186 ta, Marg'ilon shaharda – 143 ta. Quva tumanida – 79 ta, Uchko'prik tumanida – 76 ta va Oltiariq tumanida – 71 tani tashkil etgan. Shuningdek, eng past ko'rsatkich So'x tumanida – 26 tani tashkil etgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar  
va mikrofirmalar, *birlikda***

	2019 - yil yanvar – mart	2020 - yil yanvar – mart	(+;-)
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>2851</b>	<b>1436</b>	<b>-1415</b>
Farg'ona sh.	413	214	-199
Qo'qon sh.	322	186	-136
Quvasoy sh.	77	52	-25
Marg'ilon sh.	299	143	-156
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	168	71	-97
Qo'shtepa	90	35	-55
Bag'dod	113	63	-50
Buvayda	152	56	-96
Beshariq	89	47	-42
Quva	198	79	-119
Uchko'prik	153	76	-77
Rishton	116	62	-54
So'x	38	26	-12
Toshloq	106	54	-52
O'zbekiston	145	69	-76
Farg'ona	126	63	-63
Dang'ara	126	64	-62
Furqat	68	35	-33
Yozyovon	52	41	-11



## 2020 - yil yanvar - mart holatiga yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da



2020 - yil yanvar - mart holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Farg'ona shahri - 14,9 %, Qo'qon shahar - 13,0 %, Marg'ilon shahar - 10,0 %, Quva tumani - 5,5 %, Uchko'prik tumani - 5,3 %, Oltiariq tumani - 4,9 %, O'zbekiston tumani - 4,8%, Dang'ara tumani – 4,5 %, Bag'dod va Farg'ona tumanlari - 4,4 % hamda Rishton tumanida – 4,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalar, *birlikda*

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	(+;- )
Jami	2851	1436	-1415
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	81	81	0
Sanoat	569	340	-319
Qurilish	166	125	-41
Savdo	1486	620	-866
Tashish va saqlash	95	45	-50
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	206	53	-153
Axborot va aloqa	26	38	12
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	24	33	9
Boshqa faoliyat turlari	108	101	-7

**Ma'lumot uchun:** 2020 - yilning yanvar – martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*

	2019-yil yanvar-mart	2020-yil yanvar-mart	Farqi (+;-)
Farg'ona sh.	413	214	-199
Qo'qon sh.	322	186	-136
Marg'ilon sh.	299	143	-156
Quva tumani	198	79	-119
Uchko'prik tumani	153	76	-77
Oltiariq tumani	168	71	-97
O'zbekiston tumani	145	69	-76
Dang'ara tumani	126	64	-62

2020 - yil yanvar – martda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i Farg'ona shahrida – 214 ta.




## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, *birlikda*





Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar - mart holatiga ko'ra\*



2020 - yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Farg'ona shahrida 19,4 birlik, Qo'qon shahrida 16,9 birlik, Quvasoy shahrida 16,2 birlik. Marg'ilon shahrida 14,9 birlik, Dang'ara tumanida 14,7 birlik, Furqat tumanida 14,6 birlik, Quva tumanida 14,0 birlik, So'x va Uchko'prik tumanlarida 12,7 birlikni tashkil etgan. Beshariq tumanida esa ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib, 6,7 birlikga to'g'ri keldi.

*\*Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)*





2020 - yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*

19,4 Farg'ona sh.

16,9 Qo'qon sh.

16,2 Quvasoy sh.

14,9 Marg'ilon sh.

14,7 Dang'ara

14,6 Furqat

14,0 Quva

12,7 So'x

12,7 Uchko'prik

12,0 Yozyovon

11,9 Toshloq

11,8 O'zbekiston

11,2 Rishton

10,7 Oltiariq

10,2 Farg'ona

10,0 Bag'dod

8,4 Qo'shtepa


8,3 Buvayda

6,7 Beshariq

\*Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)



## Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*



Bundan ko'rinib turibdiki, Farg'ona shahrida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab eng yuqori darajada bo'lgani uchun ham bu shaharda korxonalar soni ko'paygan. Aksincha, Beshariq tumanida tovar va xizmatlarga bo'lgan talab pastligi uchun ham korxonalar soni op'zgarman va eng past darajaga tushib ketdi.

*\*Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)*


### Kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushining o'sish dinamikasi yanvar - mart holatiga ko'ra, % da

2020 - yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 56,9 % ni tashkil qildi. (2019 – yilning yanvar – martida 56,1 %).

YaHM tarkibidagi o'sish yirik korxonalar ulushining pasayishi bilan izohalanadi.



### Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi (umumiy hajmiga nisbatan % da)





## 2020 - yilning yanvar - martida kichik tadbirkorlikning hududlar kesimida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>36,4</b>	<b>94,9</b>	<b>69,9</b>	<b>69,7</b>
Farg'ona sh.	17,7	96,6	42,5	44,2
Qo'qon sh.	16,3	78,4	88,8	51,8
Quvasoy sh.	35,5	91,7	95,8	15,3
Marg'ilon sh.	81,8	100	97,4	86,1
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	100,0	99,6	96,6	68,0
Qo'shtepa	100,0	99,5	99,2	99,3
Bag'dod	22,2	91,6	98,2	97,7
Buvayda	100,0	99,8	99,3	99,4
Beshariq	48,4	91,9	96,9	98,6
Quva	40,7	99,2	96,0	98,1
Uchko'prik	95,3	99,2	97,8	97,5
Rishton	70,5	97,3	94,5	82,0
So'x	100,0	100,0	98,6	90,2
Toshloq	16,5	99,6	95,8	99,2
O'zbekiston	100,0	99,8	98,7	99,2
Farg'ona	96,3	95,2	88,0	93,9
Dang'ara	100,0	96,3	96,8	96,3
Furqat	100,0	99,5	99,2	92,1
Yozyovon	100,0	78,0	98,8	65,7

Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

### Sanoatda-

Oltiariq (100,0 %),  
Qo'shtepa (100,0 %),  
Buvayda (100,0 %),  
So'x (100,0 %),  
O'zbekiston (100,0 %),  
Dang'ara (100,0 %),  
Furqat (100,0 %) va  
Yozyovon (100,0 %)  
tumanlarida.

### Qurilishda-


Marg'ilon sh. (100,0 %),  
So'x (100,0 %),  
Buvayda (99,8 %),  
O'zbekiston (99,8 %),  
Oltiariq (99,6 %),  
Toshloq (99,6 %),  
Q'shtepa (99,5 %) va  
Furqat (99,5 %)  
tumanlarida .

### Xizmatlarda-

Buvayda (99,3 %),  
Qo'shtepa (99,2 %),  
Furqat (99,2 %),  
Yozyovon (98,8 %),  
O'zbekiston (98,7 %)  
So'x (98,6 %)  
Bag'dod (98,2 %) va  
Uchko'rik (97,8 %)  
tumanlarida .




## Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2020 - yilning yanvar-martida





## Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da




2020 - yil yanvar - mart holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi eng ko'p ulushini Marg'ilon shahar, Oltiariq, Qo'shtepa, Bag'dod, Buvayda, So'x, O'zbekiston, Furqat, Yozyovon, Beshariq va Dang'ara tumanlari 100,0 foizdan, eng past ko'rsatkich Toshloq tumani – 10,3 % va Qo'qon shahar – 18,9 % ni tashkil etdi.






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da




2020 - yil yanvar - mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovarlar, ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Marg'ilon shahar, Yozyovon, Furqat, Dang'ara, O'zbekiston, So'x, Uchko'prik, Beshariq, Buvayda tumanlarida (100,0 foizdan). Eng past ko'rsatkich Farg'ona shahrida - 27,2 % ni tashkil etdi.






## 2020 - yilning yanvar - martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi




Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Farg'ona shahar (338,2 mlrd. so'm), Dang'ara tumani (186,7 mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (157,3 mlrd. so'm) Qo'qon shahar (110,1 mlrd. so'm), va O'zbekiston tumani (105,3 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keladi. So'x (20,8 mlrd. so'm) va Bog`dod (22,9 mlrd. so'm) tumanlarida ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






## 2020 - yil yanvar - mart holatiga jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Oltiariq, Qo'shtepa, Buvayda, So'x, O'zbekiston, Dang'ara, Furqat va Yozyovon tumanlari (100,0% dan). Bundan tashqari, Farg'ona tumani (96,3 %), Uchko'prik tumani (95,3 %), Marg'ilon shahar (81,8%), Rishton tumani (70,5%), Beshariq tumani (48,4 %) da kichik biznesning ulushi o'rta darajada bo'lib, Quva tumani (40,7 %), Quvasoy shahar (35,5 %), Bag'dod tumani (22,2 %), Farg'ona (17,7 %) va Qo'qon (16,3 %) shaharlarida hamda Toshloq tumani (16,5 %) da kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.




## 2020 - yilning yanvar - martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha ko'proq chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Farg'ona shahar (626,4 mlrd. so'm), Qo'qon shahar (388,7 mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (237,1 mlrd. so'm), Qo'shtepa (180,6 mlrd. so'm), Quva (146,6 mlrd. so'm), Uchko'prik (114,5 mlrd. so'm) va Oltiariq (113,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



## 2020 - yilning yanvar - martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahar (209,1 mlrd. so'm), Quvasoy shahar (81,3 mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (80,2 mlrd. so'm), Dang'ara tumani (76,0 mlrd. so'm), Qo'qon shahar (61,6 mlrd. so'm), Quva tumani (61,2 mlrd. so'm), Oltiariq tumani (40,1 mlrd. so'm) va Furqat (37,9 mlrd. so'm) tumanida qayd etilgan.





## 2020 - yilning yanvar - martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati




Hududlar bo`yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Farg'ona shahar (614,7 mlrd. so'm), Qo'qon shahar (342,2 mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (283,7 mlrd. so'm), Uchko'prik tumani (79,9 mlrd. so'm), Oltiariq tumani (72,2 mlrd. so'm), Farg'ona tumani (70,5 mlrd. so'm) O'zbekiston (66,8 mlrd. so'm), Quva (63,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020-yil I chorak yakunlariga ko'ra, mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **1355** tadan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

### 2020 - yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirmalar va kichik korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi\*, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning sanoatdagi ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 3,5 % (47 ta.), sanoatda – 22,2 % (301 ta), qurilishda – 10,4 % (142 ta), savdoda – 34,2 % (464 ta), xizmatlar sohasida – 29,7 % (401 ta).


*\* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.*



## 2020-yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



## 2020 - yil I chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020 - yil I choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra o'tgan yilning shu davriga nisbatan **qulay** iqtisodiy vaziyat korxonalarining barcha iqtisodiy faoliyat turlarida pasayish kuzatildi. Jumladan Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 1,4 punktga, sanoatda 15,1 punktga, qurilishda 14,4 punktga, savdoda 6,9 punktga hamda xizmatlar sohasidagi kichik korxonalar va mikrofirmalarda 23 punktga pasaygan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni **qoniqarli** deb baholaydigan korxonalar ulushi sanoatda 11,6 punktga, qurilishda 10,1 punktga, savdoda 3,3 punktga va xizmatlar sohasida 16,6 punktga oshdi.

Joriy yilning I choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 2,4 punktga, sanoat sohasida 3,5 punktga, qurilishda 4,3 punktga, savdoda 3,6 punktga, xizmatlar sohasida 6,4 punktga iqtisodiy vaziyatni **qoniqarsiz** deb baholagan korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.



### Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2019 – 2020 yillarda I chorakdagi iqtisodiy vaziyatni baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2020 - yilning I choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni **yaxshilanishiga** ishongan korxonalar ulushi barcha iqtisodiy faoliyat turlarida pasayganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyat **o'zgarishsiz** qolishiga ishongan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi yo'nalishidagi korxonalar ulushi - 1,9 punktga, sanoatda – 31,0 punktga, qurilish korxonalarida – 21,5 punktga, savdo korxonalarida – 22,7 punktga, xizmatlar sohasidagi korxonalarda – 27,9 punktga o'sdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha barcha korxonalarda yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat **yomonlashishini** kutayotgan korxonalar ulushi oshganligi kuzatildi.



**Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarining 2019 – 2020 - yillarda I chorakdagi iqtisodiy vaziyatining yaqin uch oyda baholanishi, % da**




■ yaxshilanish    ■ o'zgarishsiz    ■ yomonlashish




2020 - yil I choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **131 ta** respondentlar qatnashgan. Shundan savdo korxonalari – 55 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonining 41,9%), sanoat – 30 ta (22,9%), xizmatlar – 29 ta (22,1%) va qurilish – 11 ta (8,4%), qishloq, o'rmon va baliq ho'jaligi – 6 ta (8,4%).

### 2020 - yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






## 2020 - yilning I chorak bo'yicha kuzatuvda ixtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



## 2020 - yil I chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, 2020 - yilning I choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, iqtisodiy vaziyatni **qulay** deb baholaydigan korxonalar ulushi qurilish sohasida 10,7 punktga oshgan, qolgan iqtisodiy faoliyat turlarida pasayganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning I choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni **qoniqarli** deb baholaydigan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 16,6 punktga, sanoatda 15,4 punktga, savdoda 10,1 punktga va xizmatlar sohasida 32,7 punktga o'sdi.

Joriy yilning I choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni **qoniqarsiz** deb baholaydigan korxonalar ulushi qurilish korxonalarida 6,3 punktga pasaygan.



## 2019 – 2020 - yillar I chorakdagi yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy vaziyatini baholash, % da


Qishloq, o'rmon  
va baliq xo'jaligi

Sanoat

Qurilish

Savdo

Xizmatlar



2019-yil I chorak 2020-yil I chorak 2019-yil I chorak 2020-yil I chorak 2019-yil I chorak 2020-yil I chorak 2019-yil I chorak 2020-yil I chorak 2019-yil I chorak 2020-yil I chorak

■ qulay

■ qoniqarli

■ qoniqarsiz



Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati kuzatuv natijalariga ko'ra, 2020-yilning I choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni **yaxshilanishiga** ishongan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kamaygan.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydagi iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan **o'zgarmaydi** deb hisoblagan korxonalar ulushi xizmatlar sohasida 15,9 punktga, sanoatda 3,3 punktga, savdoda 21,2 punktga oshgan bo'lsa, qurilish sohasidagi korxonalarda 1,1 punktga kamaygan.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni **yomonlashishini** baholagan korxonalar ulushi savdoda 1,9 punktga oshgan.

**2019 - 2020-yil I choragida yangi tashkil etilgan korxonalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**

